

NIZOMULMULKNING “SIYOSATNOMA” ASARI TAHLILI

Termiz davlat universiteti talabalari:

O’ralova Sarvinoz Akbar qizi

Ziyoeva Munira Bobojonovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarining tahlili, bugungi kundagi ahamiyati xususida so’z yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *siyosat, davlat, shoh va amaldorlar, adolat, mulk.*

Ma’naviyat va bilim xazinasini bo’lgan qadimiy asarlarning ko’pginasi bugungi kungacha yetib kelgan. Shulardan Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari ham bor. Saljuqiylar shohlariga 30 yil halol vazirlik qilib xizmat qilgan – Nizomulmulkning kuchli davlat uchun kurash olib borish bilan birga o’z kuzatishlarini jamlab, siyosatchilar, davlat arboblari uchun zarur qo’llanma xizmatni o’tab keladigan asar yaratdi. Adolat, tenglik va haqqoniylikning manbasi Qur’oni Karim va Hadisi sharif hisoblansa, “Siyosatnoma” asari shu muqaddas kitoblardagi fikrlarifodasini sharhlab, izohlab beradi. Nizomulmulkning Sharq tarixida va madaniyatida 1091-yilda yozilgan “Siyosatnoma” (“Siyar ul-muluk”) asari bilan o’chmas iz qoldirgan. “Siyosatnoma” Sharq madaniyatini, saljuqiylar tarixi va siyosiy hayotini o’rganishda eng ishonchli manba hisoblanadi. Asar davlatni boshqarishda birdastur sifatida yaratilgan. Asarning avvali “Bismillahir – Rohmanir – Rahim” deya boshlanadi. Asarning birinchi faslida zamona odamlarning ahvollarini va sultoni odil, shahonshohi a’zamning madhi haqida hikoya qilinadi. Ikkinchi fasl podshohlarni alloh bergan ne’matlarning qadrini bilish kerakligi haqida va ularning xalqqa qiladigan xayru – ehsoni va adollatlari haqida hikoya qilinadi. Podshohlarning Mulki xalqning duolari va ezguliklar bilan mustahkam bo’ladi. Din ulug’lari aytganlarki, “Mulk kufr bilan mavjud bo’lishi mumkin, zulm bilan barbod bo’ladi.” Yana boshqa hikoyalarda esa Abdulloh ibn Umar-al-Xattob o’z otasiga aytgan edi: “Olamdan o’tsang seni tezroq, uchinchi yoki ikkinchi kechada tushimda ko’rishni istayman.” lekin 12 yild o’tib ham uni tushida ko’rmaydi. 12 yildab so’ng tushiga kirganida sababini so’raydi. Otasi aytadi: “Bir ko’prik buzilgan va xizmatchilar uni tuzatmagani, qo’ylar shu ko’prikdan o’tayotganda, bir qo’yning oyog’i teshikka tushib singani uchun, shuncha vaqt davomida uning javobini berdim. Buning xulosasi shundaki, podshoh bo’lgan kishi o’sha davr



mobaynida bedor bo'lib bo'lsa ham xalqning ahvolidan xabar olishi, xalqni zolimlar zulmidan qutqarishi, xalqqa yordam berishi kerak. Zeroki, payg'ambarimiz xabarida borki, kimki xalqqa boshliq bo'lib farmon beruvchi bo'lsa qiyomatda qo'llari bog'liq olib kelinadi. Odil bo'lgan bo'lsa qo'llari ochilib jannatga kirar, agar zolim bo'lgan bo'lsa bog'liq qo'li bilan do'zaxga tushadi. Podshoh shuning uchun xalqning duosini olsa, zulm qilmasa qiyomatda uning nomiga duolar keladi. Uning nomayi amalida buyuk savoblar yoziladi. Zeroki, podshohning bir soatlik adolati huru farishtalarning ibodatidan afzaldir. 39-faslda esa podshohlik ishlarida shoshilmaslik haqida yozilgan. Shoh biror xabar eshitsa shoshilmasdan, haqiqatni aniqlab, yolg'onni rostdan ajratib olishi kerak. Shoshilish bub u zaiflarning ishi hisoblanadi va keyinchalik pushaymon qilishning foydasi yo'q. Bunga misol qilib “Rustamxon” dostonida ikki kundosh Huroyimdan qutulish uchun Momogul maston bilan til biriktirib, Huroyim ustidan fitna-g'iybat to'la arznoma yozdirib podshohga jo'natganda podshoh aniqlik kiritmasdan, arznomaga ishonib, Huroyimni dorga osishga farmon beradi. Bu shoshilib, haqiqatni aniqlashtirmay qaror qilishning oqibatidir. “Siyosatnoma” saljuqiylarning siyosiy dasturi sifatida baholangan. Asarda Nizomumulkning shoh va amaldorlari adl-u insofga sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarishga, mamlakat farovonligi, obodligi, tinchligi va totuvligini ta'minlashga da'vat etgan.

Asarda tilga olingan tarixiy shaxslar qatorida Sulton Mahmud G'aznaviyning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, faoliyatiga oid turli voqeyiy hikoyalar mazmunli va ibratlidir. Ular hamisha adl-insof, lutf-marhamat, ezgulik g'oyalarini targ'ib etmoqqa xizmat qiladi. Bundan tashqari asarda o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi munosabatlarni olamiz. Islom tarixida alohida o'rin olgan Muqanna harakati, Bobak qo'zg'olani, xurramiylar haraki haqida ham qiziqarli ma'lumotlar asarda jamlangan.

Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarining bugungi kunda ahamiyati juda kattadir. Ayniqsa, davlatni boshqarish, hukmdorning vazifalari, xalq bilan aloqasi, amaldorlar va sud tizimining rolidagi ahamiyati yetakchidir, chunki asarda bu haqida keng qamrovli tavsiyalar berilgan. Bugungi kunda, demokratiya va inson huquqlari muhokama qilinayotgan bir paytda, “Siyosatnoma” asaridagi siyosat haqidagi mulohazalar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Hukmdor va amaldorlar o'rtasidagi munosabatlarni, davlatni barqaror boshqarishning prinsiplariga oid fikrlar hozirgi zamon siyosatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Nizomulmulk asarida adolat, axloqiy me'yorlar, diniy e'tiqodlar va xalqqa xizmat qilish masalalariga alohida urg'u berilgan. Jamiyatimizda axloqiy va huquqiy qadriyat muhim ahamiyatiga ega. Shu nuqtai nazardan, bu asar axloqiy siyosatning zamonaviy jihatlarini o'rganishda muhim manba bo'lishi mumkin.

Asarda davlatning barqarorligi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimining yaxshilanishi, fuqarolarning boshqarish bo'yicha muhim ko'rsatmalar berilgan. Hozirgi kunda ham ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishda Nizomulmulkning tavsiyalari foydali bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, "Siyosatnoma" asari faqat o'z zamonasining siyosiy tuzilmasi uchun emas, balki bugungi kun siyosiy tizimlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu asar, hukmdorlar uchun etika, adolat va siyosiy mahoratni o'z ichiga olgan muhim siyosiy qo'llanma sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nizomulmulk "Siyosatnoma". - Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2017.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua (2-jild). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N. Rahmonov. - T.: Fan, 2007.
3. Yusupova D. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). O'quv qo'llanma. - T.: Akademiya nashri, 2013.
4. Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. - Toshkent: "Mumtoz so'z". - T.: 2016.
5. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: "Sano-standart". - 2017.

